

IKKILAMCHI INTERPRETATSIYA IDIOMATIKLIKNING ASOSI SIFATIDA

Akmal Gulamjanovich YULDASHEV

Filologiya fanlari doktori, dotsent

Ingliz tili 1-fakulteti dekani

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

ВТОРИЧНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КАК ОСНОВА ИДИОМАТИКИ

Акмал Гуламжанович ЮЛДАШЕВ

Доктор филологических наук, доцент

Декан 1-го факультета английского языка

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

SECONDARY INTERPRETATION AS THE BASIS OF IDIOMATICITY

Akmal Gulamjanovich YULDASHEV

Doctor of philological Sciences, Associate Professor

Dean of the 1st Faculty of English

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan akmal1909@mail.ru

UDC (UO'K, УДК): 811.11-112

**For citation (iqtibos keltirish uchun,
для цитирования):**

Yuldashev A.G. Ikkilamchi interpretatsiya idiomatikalikning asosi sifatida // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 6 (53). — B. 7-21.

<https://doi.org/10.36078/1702313899>

Received: October 10, 2023

Accepted: December 12, 2023

Published: December 15, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Maqola til, tafakkurning o'zaro aloqadorligi va undagi idiomatik birliklarning roliga bag'ishlangan. Xususan, idiomatik til birliklarini tahlil qilish ularning ikkilamchi interpretatsiya natijasida qanday shakllanganligini aniqlashga imkon beradi. Biroq idiomatik birliklar o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi, ular olamni bilishning ikkilamchi interpretatsiyasiga asoslanadi. Har bir til egasi olamni o'ziga xos tarzda idrok etadi. Idiomatik birliklarni o'rganish predmetning qaysi xususiyati aniq va o'ziga xos holatda qabul qilinishini aniqlash imkonini beradi. Inson olgan bilimlari asosida vaziyatni qiyoslaydi va baholaydi, so'ng uni nutqda verballashtiradi. Shunday qilib, olamni idrok etish, bilish va tasniflash usullarining kombinatsiyasi va olam haqidagi bilimning ikkilamchi interpretatsiyasi til egalarining madaniyati, urf-odatlar va tarixiga hurmat ko'rsatadigan tilning noyob idiomatik birliklarini shakllantirishga olib keladi.

Kalit so'zlar: idiomatik til birliklari; ikkilamchi interpretatsiya; kognitsiya; ikkilamchi kategorizatsiya; ikkilamchi konseptualizatsiya.

Аннотация. Статья посвящена взаимосвязи языка, мышления и роли в них идиоматических единиц. В частности, анализ идиоматических языковых единиц помогает определить, как они формируются в результате вторичной интерпретации. Однако идиоматические единицы не образуются спонтанно, они основаны на вторичной интерпретации знаний о мире. Каждый носитель языка узнает мир по-своему. Изучение идиоматических единиц позволяет определить, какой признак предмета воспринимается как отчетливый и специфический. Человек сравнивает и оценивает ситуацию на основе полученных им знаний, после чего

вербализует их в речи. Таким образом, сочетание способов понимания, познания и категоризации мира и вторичной интерпретации знаний о мире приводит к формированию уникальных идиоматических единиц языка, учитывающих культуру, обычаи и историю языкового общества.

Ключевые слова: идиоматические единицы; вторичная интерпретация; когниция; вторичная категоризация; вторичная концептуализация.

Abstract. This article is devoted to the interrelationship of a language, thought, and the role of idiomatic units in it. In particular, the analysis of the idiomatic language units helps to define how they are formed as a result of secondary interpretation. However, the idiomatic units are not formed spontaneously; they are based on the secondary interpretation of the knowledge of the world. Every native speaker recognizes the world differently. The study of idiomatic units allows us to determine what feature of the subject is perceived as distinct and specific. A person compares and evaluates the situation based on the knowledge acquired by him/her after that he/she verbalizes it in speech. Thus, a combination of ways to understand, cognize, and categorize the world and the secondary interpretation of the knowledge of the world results in forming unique idiomatic units of the language respecting the culture, customs, and history of a linguistic society.

Keywords: idiomatic units; secondary interpretation; cognition; secondary categorization; secondary conceptualization.

Kirish. Tilshunoslikning struktur-funksional bosqichida asosiy e'tibor tilni tizim sifatida o'rganish masalasiga qaratildi. XX asr oxiriga kelib tilni undan foydalanuvchi shaxs omili bilan bog'liq holda o'rganuvchi ilmiy paradigma — antroposentrizmga e'tiborning kuchayishi natijasida tilshunoslikda hal qilinishi lozim bo'lgan qator muammolar yuzaga keldi. Jumladan, til birliklarini nutqiy vaziyat, til egalarining ruhiyati, olam haqidagi bilimlari, assotsiativ tafakkuri, milliy-madaniy qarashlari kabi nolisoniy omillar bilan bog'liq holda o'rganish g'oyasi markaziy o'ringa chiqdi. Bugungi kunda tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlarda nafaqat tilning ontologik mohiyatiga, balki olamni bilish va til yordamida olamni bilish jarayonlarining qay tarzda amalga oshishiga e'tibor qaratilmoqda. Olamni bilish muloqot vositalari, turli bilim tizimlari va bilish shakllarining o'zaro ta'sirining murakkab, ko'p omilli uzoq va qisqa davom etadigan jarayonidir. Ayni vaqtda insonga turli yo'llar orqali keladigan barcha ma'lumotlarning aloqa predmetiga aylanishi uchun uning konseptual tizim va lisoniy shaklga ega bo'lishi ham kerak. D. Dennettning fikriga ko'ra, miyaning vazifasi doimo inson qabul qiladigan ma'lumotlarni aniqlashtirish hamda interpretatsiya qilishdan iborat bo'ladi (20, 111).

Asosiy qism. Interpretatsiya — insonning olamni va ushbu olamda o'zini subyekt sifatida anglashi, interpretatsiya qilish jarayoni bo'lib, uning natijalari, bir tomondan, olam haqidagi mavjud umuminsoniy tasavvurlarga, ikkinchi tomondan, olam bilan o'zaro munosabatidagi shaxsiy tajribasiga asoslangan holda olamni

interpretatsiya qilish hisoblanadi, ya'ni bu — olam manzarasi yoki insonning individual ongiga singdirilgan o'z olamidir.

Interpretatsiya mexanizmlari ifoda jihatidan individual bo'lib, interpretatsion yondashuv inson tajribasiga asoslangan konseptual tuzilishni tasvirlash va tushuntirishga asoslanadi. Bu tuzilmalar interpretatsiyaning subyektiv jarayonlari sifatida qaraladi, go'yo bu ma'no shaxs tomonidan olamdagi obyektiv mavjud narsalar va hodisalarga qo'shilganidek ko'rinadi. Ushbu jarayonda madaniyat subyektiv interpretatsiyalarning birlashtirilgan to'plami sifatida interpretatsiya qilinadi, unga ko'ra madaniyat va inson o'rtasida kelishuv mavjud. Interpretatsiya — kognitiv jarayon shu bilan birga nutq faoliyati yoki nutq harakatlarini aniqlashning natijasi bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham jarayon, ham natija bo'lishi ushbu jarayonning juda murakkab muhim falsafiy, mantiqiy kategoriya ekanligini ko'rsatadi.

Aytish joizki, lisoniy interpretatsiya kognitiv faoliyat natijasida olamni inson tomonidan tushunish va tushuntirishga qaratilgan. Bu faoliyat, bir tomondan, jamoaviy bilimlarga, ikkinchi tomondan, shaxsga, shu jumladan, borliq bilan o'zaro munosabat tajribasiga asoslangan. Interpretatsiya qilish vositalari va maqsadlari bilan farq qiladi, shu bois lisoniy interpretatsiyaning ikki asosiy turi mavjud. Jumladan, N.N. Boldirev olam va bilimning tildagi interpretatsiyasini birlamchi va ikkilamchi interpretatsiyaga ajratadi. Birlamchi interpretatsiya insonning olam tuzilishida faol va aniq bir maqsadga qaratilgan harakatini va u bilan bo'lgan birgalikda harakat sxemasini anglatadi. Bu jarayonda inson olamni idrok etishda borliqdagi narsa va hodisalarni muayyan qolipga, ya'ni kategoriyalarga joylashtiradi. Bu jarayonda inson tizimli mavzuiy konseptual maydonlarni shakllantiradi (4).

Birlamchi interpretatsiya insonning olamni o'rganishda, u bilan o'zaro munosabatini sxemalashtirishda faol, maqsadga muvofiq ishtirok etishini anglatadi. Bu til yordamida bilim birliklari bo'lgan konseptlarni konseptuallashtirish va ularning umumiy lisoniy belgi bilan kategoriyalarga birlashtirishni — kategoriyalashtirishni o'z ichiga oladi, olam va uning obyektlari va hodisalarini birlamchi konseptuallashtirish hamda birlamchi kategoriyalashtirish jarayonlarining interpretatsion xarakterida namoyon bo'ladi. Olamni birlamchi interpretatsiya qilishning natijasi lisoniy kategoriyalar tizimi shaklida til vositasiz amalga oshiriladigan tabiiy konseptuallashtirish yoki tabiiy obyektlarni kategoriyalashtirish tizimi hisoblanadi.

Birlamchi interpretatsiya narsa va hodisalarni gorizontal kategoriyalashtirishda, ularning xilma-xilligi va farqlanishini namoyish qilishda namoyon bo'ladi: *ot, xo'tik, daraxt, gul, sariq, yashil* va boshqalar. Vertikal kategoriyalashtirish jarayoni ajralib turadigan yuqori darajadagi kategoriyalarga xosdir: *mushuksimonlar, boshqodoshlar, harakat, rang* va boshqalar. Shuningdek, u olamni selektiv interpretatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan uning hayot sharoitlari va asosiy faoliyat turlari ta'siri ostida insonning muayyan

jamiyat vakili sifatida konseptual tizimini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Ikkilamchi interpretatsiya natijasi esa avval interpretatsiya qilingan obyektlar yoki ularning individual xususiyatlarini subyektiv anglashni yoritadi (5, 21), ikkilamchi konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan olam haqidagi yangi bilimlar hisoblanadi. Ikkilamchi interpretatsiyaning obyekti — olam, obyekt va hodisalar kategoriyalari haqidagi mavjud va allaqachon tilda ifodalangan jamoaviy bilimlardir. Uning natijasi — olamdagi obyektlar va hodisalar, shu jumladan, ikkilamchi konseptuallashtirish va ikkilamchi kategoriyalashtirishga ajratish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan yangi bilimdir (6, 8-9). Shunga ko'ra, lisoniy interpretatsiyaning ushbu turini shartli ravishda subyektiv interpretatsiya deb qabul qilish mumkin. U asosan modifikatsiyalashgan kategoriyalar tizimida va turli darajadagi lisoniy birliklar va kategoriyalarning funksional o'zgarishi, so'z yasash modellari, sintaktik tuzilmalar, tema-rematik qurilish, inkor, ehtimollash, ekspressivlik, tonallik, aniqlik-noaniqlik, dalillash, turli baholovchi tushunchalar va kategoriyalarni o'z ichiga oladi va shular jumlasiga kiradi.

Til yordamida amalga oshiriladigan kognitiv jarayonlarda insonning faol roli lisoniy ma'no va lisoniy shakllarni tanlashda namoyon bo'ladi, bu esa lisoniy birliklar va kategoriyalarning konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish jarayonlariga sezilarli ta'sirini nazarda tutadi. Bundan tashqari, u til bilishning eng muhim omillaridan biri bo'lib, shaxsning bilish istagini ro'yobga chiqaradigan izohlovchi omil sanaladi. Shu asosda til ma'lumotlarni saqlash va uzatish bilan bir qatorda, olamni va olam haqidagi bilimlarni interpretatsiya qilish funksiyasini bajaradi. Inson faoliyatini interpretatsiya qilish natijasi sifatida (12) tilning olam haqidagi bilimlarni reprezentatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan funksiyasi sifatida gapirishga asos bo'lib, uning o'ziga xosligi va asosiy kognitiv jarayonlar bilan bog'liqligini batafsil o'rganishni talab qiladi.

Turli tilda so'zlashuvchi millat vakillarining borliqni idrok etishining o'ziga xos xususiyati va ularni verballashtirish tilning interpretatsiya qilish funksiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Interpretatsiya tabiiy ravishda til vositachiligidagi barcha bilim jarayonlariga hamrohlik qiladi. Olam haqidagi bilimlarni interpretatsiya qilish orqali ularning xilma-xillikda namoyon bo'lishini ko'rsatishdir. Shuningdek, lisoniy interpretatsiyaning jamoaviy, individual, statik va dinamik jihatlarining kognitiv faoliyati lisoniy faoliyatga vositachilik qiladigan faoliyat sifatida ko'rib chiqish lozim bo'lib, olamning lisoniy interpretatsiyasi turli lisoniy hodisalar va kategoriyalarda, bilim natijasi sifatida taqdim etiladi.

Olingan bilimlarning lisoniy ifodasi bilan bog'liq bo'lgan lisoniy interpretatsiyani o'rganishda olamni konseptuallashtirish va kategoriyalarga ajratish jarayonlarida jamoaviy va individual bilimlarning o'zaro ta'sirini hisobga olish kerak bo'ladi. Jamoaviy bilimlar — jamiyat tomonidan to'plangan, tilda mustahkamlangan

bilimlar, individual bilimlar esa hajm, mazmun va interpretatsiya jihatidan individual tarzda voqelanadigan bilimlar. E.S. Kubryakova ta'biri bilan aytganda, "tayyor" fikrlar verballashmasdan avval mavjud bo'lmaydi, aynan ularning "nutq yaratish jarayonidagi bosqichma-bosqich lisoniy dizayni" ularga to'liqlikni beradi (9, 14).

Inson atrofdagi olamni vizual aks ettirmaydi, balki tayyor kognitiv sxemalarda va olamni lisoniy idrok etish tajribasiga tayangan holda ongida kodlashtiradi. Bunda inson, avvalo olamni idrok etadi, undan so'ng tafakkurida bilim sifatida kodlashtiradi, so'ngina verbal ifoda bergan holda interpretatsiya qiladi. A. Vejbskaning yozishicha, har qanday bilim olamning inson tomonidan interpretatsiyasi hisoblanadi (18). Shuni ham ta'kidlash joizki, interpretatsiya lisoniy tasavvurlarning xilma-xilligida aniqlanadi ya'ni lisoniy interpretatsiya kognitiv faoliyat turi, bu olamda insonni va o'zini tushunish, tushuntirish jarayoni va natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

E.S. Kubryakova nutqda aks etgan obyektiv olamning subyektiv qiyofasi va olamning individual manzarasi til vositasida allaqachon anglashilgan olam haqidagi jamoaviy ma'lumotlar orqali qaytarilishini ta'kidlaydi (10, 10). Bu jamoaviy bilimlar kognitiv tizimning borliqdagi ishtirokini va uning rivojlanishini ta'minlaydi. Boshqacha qilib aytganda, ular kognitiv tizim vazifasida obyektни idrok etishning perseptual gipotezasi yoki olam tuzilishi to'g'risida oldindan belgilangan faraz qilingan muammolarni hal qilish uchun ma'lum yo'nalishda harakat qilishga tayyorlik sifatida namoyon bo'ladi. Interpretatsion konseptlar — bu shaxsning individual konseptual tizimi doirasida olam haqidagi jamoaviy bilimlarning interpretatsiyasi asosida shakllangan yangi bilim birliklaridir.

N.N. Boldirev ong tuzilishini ochib beruvchi va uning shakllanishiga ta'sir qiluvchi lisoniy interpretatsiyaning uchta asosiy modellarini ajratib ko'rsatadi:

1. **Moddiy olam interpretatsiyaning lisoniy modellari** — uning xilma-xilligini bildiruvchi mental model. Ushbu modellar orqali inson olam tuzilishini va uning tarkibiy qismlarini, obyektlar va hodisalarining o'zaro bog'lanishini paradigmatic va sintagmatic aloqalar orqali o'zlashtiradi. Masalan: *coal — black (qora — ko'mir)*, *cotton — white (oq — paxta)*, *snow — white (qor — oppoq)*.

2. **Jamoaviy interpretatsiyaning lisoniy modellari** insonning ijtimoiy maqomi, ijtimoiy xizmat nomlarini birlashtirgan kasbiy faoliyat turlari tavsifi haqida ma'lumot beradi. Bunga *rector (rektor)*, *vice-rector (prorektor)*, *student (talaba)*, *dean (dekan)* kabi xizmat darajalari mavqe va iyerarxiyalarini ko'rsatuvchi so'zlarni kiritish mumkin.

3. **Olam va jamiyat haqidagi bilimlar interpretatsiyasi** til modellari grammatik tuzilishning turli sxemalari, obyektlar va hodisalarning ikkilamchi konseptuallashtirilishi va kategoriyalashtirilishi, metaforik, metonimik, evfemik mazmunni uzatish modellarini, metatil lisoniy modellarini nazarda tutadi. Bu modellar olam haqidagi bilimlarni tasniflash va ommaga ma'lum

bo'lgan bilim darajasini yangi bilimlar bilan boyitishni ta'minlaydi (8, 30–31) chunonchi, *nurses of the forest* — o'rmon shifokori (wolf) kabi.

Shuningdek, ta'kidlash lozimki, ikkilamchi bilish jarayoni sifatida interpretatsiya o'z obyekti sifatida obyektiv olamni emas, balki olam haqidagi bilimning jamoaviy ongda qanday namoyon bo'lishini tanlaydi. Misol uchun, inson idiomatik til birliklarini yaratishda aynan olamni idrok etish mobaynida egallagan bilimlar evaziga amalga oshiradi. Masalan, *Your son is a shining star in my group*. Ushbu jumlada *shining star* (charaqlagan yulduz) metaforasi jismni emas, balki insonni anglatadi.

Interpretatsiyaning kognitiv sxemasi asosan, turli kategoriyalarni tashkil etishning o'xshashligi, xususan, obyektlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularni kategoriyalarga ajratish, turli mavzu sohalari o'rtasida konseptual va kategoriyalararo ma'no aloqadorligini o'rnatishga imkon beradi. Bu farqlarning tipologiyasi bo'yicha, ular shakli, hajmi, tashqi ko'rinishi, vazifalari, xulq-atvori, qobiliyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Bu birinchi leksik kategoriyadagi elementlarni ikkinchi predmet sohasidagi obyektlarni belgilash orqali ularni qiyosiy va baholovchi interpretatsiya qilish uchun asos yaratadi (7, 14). Shunday qilib, leksik kategoriyaning tuzilishi ma'lum bir konseptual maydonni interpretatsiya qilishning kognitiv sxemasi vazifasini bajaradi. Masalan: QUSH konseptual maydonidan o'rin olgan *partridge* (kaklik), *peacock* (tovus), *parrot* (to'tiqush) kabi leksemlarning anglashiladigan tashqi ko'rinishi, harakat va ular haqidagi bilimlar ikkilamchi interpretatsiya hosilasi sifatida *olifta*, *mahmadona* kabi ma'nolar bilan INSON konseptining konseptual maydonidan o'rin oladi.

Funksional darajada leksik kategoriyaning interpretatsiya qilish potentsiali olam haqidagi bilimlarning ikkilamchi interpretatsiyasida namoyon bo'ladi. Bu asosiy ma'no asosida shakllangan leksik birliklarni ko'chma ma'noda qo'llash imkoniyati bilan bog'liq. Ikkilamchi interpretatsiya mustaqil kategoriyalarni tashkil qilmaydi, lekin ularning periferik elementlari sifatida boshqa baholovchi kategoriyalarga kiradi. Masalan, *tulki* so'zi insonni baholash ma'nosida "inson xarakterini baholash" kategoriyasiga kiradi, uning asosiy elementlari sifatida dastlab baholovchi *ayyor*, *yolg'onchi*, *o'z ishiga pishiq* ma'nolari inobatga olinadi. Shunga ko'ra, bu konseptlar va kategoriyalar o'zlarining funksional yo'nalishlari bo'yicha ikkilamchi interpretatsiyaning kognitiv sxemalari hisoblanadi. Masalan, inkor kategoriyasida olam haqidagi bilimlar quyidagicha izohlanadi: obyektlar, hodisalar, belgilarning borligi yoki yo'qligi, ularning mavjud g'oyalarga muvofiqligi yoki mos kelmasligi, u yoki bu bilim yoki mahoratning yo'qligi, ularning salbiy tavsifi yoki bahosi, nutq harakatlarining muvofiqligi yoki nomuvofiqligi nuqtai nazaridan interpretatsiya qilinadi. Muloqot ishtirokchilarining kommunikativ maqsadlari va munosabatlari rad etish, kelishmovchilik, taqiqlash turlarini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, rad etish funksiyasining nomi, uning tuzilishi, olam obyektlari va

hodisalarini, ularning xususiyatlari va aloqalarini tavsiflovchi jamoaviy bilim sxemalariga yo‘nalishi, olamning umumiy tuzilishi, tegishli tushuncha va kategoriyaning interpretatsiya qilinadigan tabiatini va ularning interpretatsiya sxemalari sifatida o‘ziga xosligi aniqlanadi.

Bu o‘ziga xoslik inson ongida mavjud bo‘lgan va u yordamida olamning tuzilishini ifodalovchi, nominatsiya va muloqot jarayonida interpretatsiya qiladigan hamda baholaydigan lisoniy interpretatsiyaning kognitiv sxemalari vazifasini bajaradi. Bu tushunchalarning interpretatsion funksiyasi obyektlar va hodisalarning o‘zaro munosabatlaridagi ikkilamchi konseptuallashtirishda namoyon bo‘ladi masalan, obyektlarga ajratilgan va munosabatlarning turli tasnifi *hududlar kesimida*, jismonan yoki ruhan yaqin bo‘lgan shaxslar bilan munosabat — *qarindoshlar*, *do‘stlar*, obyektlar uchun konteyner sifatida yoki voqealar *bayramlar*, *ta’tillar*, obyektlar yoki hodisalar o‘rtasidagi munosabatlar tuzilmalari sifatida *hudud masofasi* metaforik tarzda — *gilamlar olami*, *gullar shahri*, *non shahri*, metonimik tarzda *Toshkent bilan London aloqasi*, *Mahalla yig‘ini*.

Obrazli qiyoslashda propozitsional sxemalar, odatda, frazeologizmlar qo‘llaniladi va olam bilan o‘zaro ta’sir qilishning umumiy tajribasini va uni tushunish hamda baholashni tayyor hukmlar tarzida yetkazadi masalan, *He could **pass away** at any time, and the doctor asked us to prepare for the worst* jumlasidagi *pass away* frazeologik birligi ikkilamchi interpretatsiya hosilasi sanalishining boisi o‘lmoq ma’nosini anglatishi bilan ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan. Lisoniy interpretatsiya sxemasi sifatida metaforik va metonimik modellar ham umumiy, jamoaviy va individual xarakterga ega bo‘lishi mumkin.

Individual konseptual tizim doirasida olam haqidagi bilimlar me’yorlar tizimi, ideallar, stereotiplar, baholar va boshqalar haqidagi jamoaviy va individual fikrlarga muvofiq interpretatsiya qilinadi. Xuddi shu narsa subyekt tomonidan olamni bilishdagi o‘ziga xoslikni ko‘rsatadi. Bu o‘ziga xoslik qayd etganimizdek jamoaviy va individual turlari mavjud. N.N. Boldirev fikricha, lisoniy interpretatsiyaning obyekti bevosita borliq yoki olam haqida verballashgan bilim hisoblanadi. Birinchi holda, uning maqsadi obyektlar, hodisalar va ular xususiyatlarining xilma-xilligini qabul qilgan jamiyat yoki shaxs tomonidan aks ettirishdir. Ikkinchi holda, ma’lum bir insonning individual munosabatiga muvofiq, uni aniqlash, tasniflash yoki baholash uchun allaqachon mavjud bo‘lgan bilimlarni individual konseptual tizimi doirasida interpretatsiya qilishni nazarda tutadi (7, 13). Ular bir madaniyat chegarasida yoki madaniyatlararo muloqot jarayonida semiotik tizimlar yordamida amalga oshiriladi. Lisoniy interpretatsiyada ongning tanlash vazifasining yuzaga chiqishi tegishli tushunchalarning lisoniy belgilarida namoyon bo‘ladi chunki har xil taom yoki kiyim nomlari, olamdagi moddiy bilimlarning bir qismi individual konseptual tizimlarning shakllanishiga olib keladi.

Har bir shaxsning konseptual tizimining tuzilishi va mazmuni olamni ifodalash usullari bilan farq qiladi, konseptual-mavzuiy kategoriyalarning tarkibi va tuzilishi o'ziga xos tarzda strukturalanadi. Konseptual-mavzuiy sohalarning tuzilishi, mazmuni va ularni interpretatsiya qilish funksiyasi, tabiiyki, ma'lum bir kishining ijtimoiy-madaniy tajribasiga, uning tug'ilgan joyi va yashash muhiti, ijtimoiy doirasi, ma'lumoti, kasbiy muhiti, yoshi, jinsi, turmush darajasi va ijtimoiy holatiga bog'liq. Masalan, quruvchining konseptual tizimi asosan qurilish bilan bog'liq leksemalarni qamrab oladi, masalan: *qisht, taxta, tunika, loy, sement, oxak, devor, eshik, rom* va boshqalar.

Insonni o'rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhitning asosiy xususiyatlari uning turmush tarzi, ijtimoiy-madaniy tajribasini o'z ichiga oladi. Olam haqidagi umumiy jamoaviy bilimlar insonning umumiy bilimlar fonida konseptual profilini ifodalaydi, ya'ni bu o'rinda olamning barcha bilimlarini konfiguratsiya qilish yoki profillashtirishning individual usulidan foydalaniladi. Obyektlarning tasnifi hamda mavhum konseptlarning shakllanishi tilning klassifikatsiyalash funksiyasi bilan bog'liq bo'lsa, olamni mental idrok etish, olam haqidagi bilimlarni o'zlashtirish uning ikkilamchi konseptuallashtirilishi va ikkilamchi kategoriyalashtirilishining hosilasi sanaladi. Tildan mental harakatlar va holatlar, his-tuyg'ularni ifodalash uchun foydalanish inson konseptual tizimining reprezentatsiya qilinishini ta'minlaydi.

Lisoniy interpretatsiya tilning uchta o'ziga xos funksiyasida namoyon bo'ladi: belgilash, interpretatsiya qilish va baholash. *Belgilash* funksiyasi tegishli tushunchalarning lisoniy belgilarida amalga oshiriladi. Bu olam haqidagi moddiy bilimlarning bir qismi bo'lib, u pirovard natijada individual konseptual tizimlarning shakllanishiga olib keladi. Ikkinchilamchi interpretatsiya qilish funksiyasi esa tuzilishi va mazmuni bo'yicha olamni idrok etish usullari bilan farq qiladi. Insonning konseptual tizimi tabiiy va ijtimoiy muhitning asosiy xususiyatlarini, uning turmush tarzi, darajasini o'z ichiga oladi. Uning shakllanishi ko'p jihatdan yashash vaqti va joyiga, tarixiy davrga, insonning ijtimoiy holatiga va uning boshqa insonlar bilan munosabatlariga, oilaviy aloqalariga, jinsiga, yoshiga, ma'lumot darajasi, kasbiy qiziqishlari va shaxsiy imtiyozlariga bog'liq bo'ladi. *Baholash* funksiyasida esa bilimlarni lisoniy interpretatsiya qilishning o'ziga xos uslubini — baholovchi interpretatsiyasi shakllantiriladi, ya'ni baholovchi konseptuallashtirish va kategoriyalarga ajratadi. Ma'lum bir madaniyat doirasida qabul qilingan muayyan baholash shkalalari asosida o'sha xalq, millat, jamoada qabul qilingan me'yorlar, ideallar, stereotiplar, qadriyatlarining jamoaviy va individual tizimlariga muvofiq jamoa, millat yoki madaniyat tajribasini sxemalashtirish nazarda tutiladi. Biroq bunda dunyodagi shaxslararo verbal muloqot yo'nalishining lisoniy tizimi, shaxslararo munosabatlarning jamoaviy va individual belgilangan modellorigina yaratadi.

Leksik kategoriyalar interpretatsion potensialining funksional jihati interpretatsiyaning ikkita asosiy turida namoyon bo'ladi: *aniqlash* va *tavsiflash*. *Aniqlovchi* interpretatsiya ikkilamchi nominatsiya jarayonining mohiyati bo'lib, bunda lisoniy birlik ma'lum bir konfiguratsiyada yangi bilim qismini ishlab chiqadi, konseptual proyeksiyaning berilgan lisoniy birligi orqali bilimlarni o'zlashtiradi. Boshqacha qilib aytganda, aniqlovchi interpretatsiya — bu muayyan bilim formatida atrofdagi olam obyektlarini kategoriyalarga ajratish bo'lib, buning natijasida, aniqlashtirishning quroli sifatidagi til birliklarining denotativ imkoniyatlari potentsiali kengayadi hamda obyektlarning yangi guruhini aniqlaydi. Tavsiflovchi interpretatsiya nafaqat bilimning bir qismini, balki shaxsning ushbu bilim haqidagi fikrini ifodalashga qaratilgan bo'lib, leksik kategoriyalar birliklarining nutqiy fikrlash faoliyatida baholovchi ma'nolarini yetkazish qobiliyatini ham nazarda tutadi. Bundan tashqari, interpretatsiya axborot oluvchining axborot mazmuniga bo'lgan munosabatini modellashtirishga qaratilgan bo'lishi ham mumkin. Masalan, interpretatsiya qilish usuli sifatida qaraladigan evfemizatsiya, asl tushunchaning salbiy komponentlarini yumshatish (to'liq / qisman) yoki uning ijobiy fonini yaratish orqali dastlabki bilimlarni interpretatsiya qilishning ma'lum usuli tufayli axborot oluvchining fikrini boshqarishga imkon beradi (3, 5).

Identifikatsiylovchi interpretatsiya inson tilining muayyan millat vakiliga tegishli ekanligini belgilashga xizmat qiladi. Ushbu interpretatsiya yo'nalishi metonimiya mexanizmiga asoslangan bo'lib, tilni inson identifikatsiyasining ajralmas qismi sifatida tushunishini aks ettiradi, bu esa muayyan millat vakilining ontologiyasi (debochasi, boshlanishi) deb tavsiflanadigan kuzatish formatining interpretatsiya qilish xususiyatini amalga oshirilishini ko'rsatadi. Ayni vaqtda bu jamoa salohiyatini oshirishga va obyektlarning yangi guruhlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Demak, interpretatsiya qilish funksiyasining o'ziga xos xususiyatlari, inson faoliyati turlariga mos ravishda tuzilgan bo'lib, mavjud bo'lgan jamoaviy bilim sxemalariga asoslangan hamda shaxsning konseptual tizimiga qaratilgan, ya'ni individual subyektiv shaklda namoyon bo'ladi. Inson aynan ushbu jamoaviy bilim asosida tilda idiomatik birliklarni yaratadi, chunki har qanday tilning idiomatik qatlami tilda allaqachon mavjud bo'lgan til birliklari va olam haqidagi bilimlar asosida shakllanadi. Umuman o'tgan asr tilshunosligida idiomatiklik asosan struktur tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilingan. Jumladan, D.Sanford idiomatik ifodalar (iboralar) tarkibidagi so'zlardan umumiy ma'no kelib chiqmasligini qayd etadi. Masalan, *Judge a book by its cover* (bu birlik "*tashqi ko'rinishga ishonmoq*" ma'nosini anglatadi, uning so'zma-so'z tarjimai quyidagicha: *kitobning muqovasiga qarab baho bermoq*) idiomatik ifodasini tushunish uchun unda yuz bergan o'xshatish ma'noni anglab yetish lozim. Olim bunday hollarda konseptual metaforaga e'tiborni jalb qilishni ta'kidlaydi (19). Ch. Fillmor "inson

idiomatik birliklarni tushunishi uchun til haqidagi barcha narsalarni bilishi kerak”ligini ta’kidlaydi (21, 501–538).

XIX asrning uchinchi choragida tilshunoslikda “idiomatiklik” termini qator tadqiqot ishlarining markaziy tushunchalaridan biriga aylandi. Mazkur terminni ilk bor Sh. Balli frazeologik birliklarga nisbatan qo’llagan. Uning qayd etishicha, “idiomatiklik — semantik jihatdan birlamchi lug’aviy ma’nosini yo’qotish natijasida bir-biridan o’zaro bo’linmas tarzda hosil bo’lgan frazeologik birlikdir”(2, 344).

Rus tilshunosligida *idiomatika* terminiga I. Anichkov izoh bergan. U bu haqda quyidagilarni bayon etadi: “Men so’zlarning birikishini “Idiomatika” fani deb nomlashni taklif qilaman. Bu fan so’z birikmalarini o’rganadi, sintaksisdan farqli o’laroq, so’zlarning formal birikmalarini tekshiradi” (1, 140). Olim bu fanning tahlil doirasiga tildagi barcha birikmalarni kiritadi va ularning har biri etnolingvistik o’ziga xoslikka ega ekanligini ta’kidlaydi. U misol tariqasida ingliz tilidagi *a watch gains* va rus tilidagi *часы спешат* (1, 140) so’z birikmalarini keltiradi. Mazkur misol sintaktik nuqtai nazaridan to’g’ri shakllangan, ammo leksik jihatdan tahlil qilinganda ikki so’zning birikuvini *soat shoshmoqda* tarzida interpretatsiya qilib bo’lmaydi. Negaki soat millari hech qachon shoshilmaydi, balki doimo bir me’yorda aylanadi. Keltirilgan misollarda biror ishga ajratilgan vaqt o’z yakuniga yetayotganligi, ammo ishning oxiri ko’rinmayotganligi ifoda etilgan. Shunisi etiborga molikki, I. Anichkov ingliz tilidagi fe’llarga predlog qo’shilishi bilan ma’no o’zgarishini ham idiomatiklik hodisasiga kiritadi.

A. A. Reformatskiy *idiomatiklik* terminiga quyidagicha ta’rif beradi: “Leksikalizatsiyalashgan so’z birikmalari hosil bo’lishiga ko’ra, jamiyatning hududiy va davriy, muayyan voqea-hodisasi bilan bog’liq bo’lganligi tufayli individuallik va maxsuslik xususiyatlariga ega bo’ladi. Shuning uchun ularni boshqa tilga so’zma-so’z tarjima qilib bo’lmaydi. Bunday til birligi tilshunoslikda idioma, ularning umumiy holati esa idiomatika deb yuritiladi”. Olimning fikricha, “idiomatika” termini idiomalar majmuini anglatadi (14, 128). Lingvistik terminlar izohli lug’atida “idioma” terminiga quyidagicha ta’rif berilgan: *idioma* (yun. idioma — xususiyat, o’ziga xoslik) muayyan bir tilga xos bo’lib, boshqa tillarga aynan so’zma-so’z tarjima qilib bo’lmaydigan til birligi. Idiomalar, odatda, ko’chma ma’noga ega bo’ladi va badiiy adabiyotda kinoya, qochiriq, ma’noli obrazlilikni yaratuvchi vositalardan biri sifatida qo’llanadi. Idiomalarni boshqa tilga tarjima qilishda ularning o’sha tildagi muqobilini topish kerak bo’ladi. Idiomatika — idiomalar haqidagi ma’lumot bo’lib, til birliklarining barchasida o’z aksini topishi mumkin.

“Dunyo ensiklopediyasi”da Marianne Kuley tomonidan berilgan ta’riflarga mos ta’rifni uchratish mumkin: *idiom* — is phrase or expression whose total meaning differs from the meaning of the individual words (22). Til egasi nutqida idiomalarni qo’llashi bilan bog’liq emas, balki uning so’z boyligi yuqori ekanligi, u nutq jarayonida nafaqat konvensional, balki standart bo’lmagan til

birliklariga egaligi bilan izohlanadi”, deb ta’kidlagan edilar. Haqiqatdan ham, nominator idiomatik birliklarni o’z nutqida qo’llashi uning yuqori intellektual salohiyatga ega ekanligini ko’rsatadi hamda olam haqidagi bilimlarni zukkolik bilan ikkilamchi interpretatsiya qilishidir.

Shuningdek, olimlar ikkilamchi interpretatsiya qilingan va shaffof bo’lmagan til birliklari o’zida idiomatiklikni kasb etishi va aslida bu — medalning ikki tomoni ekanligini qayd etadilar. Shuning uchun tildagi idiomatiklikni aniqlashda xuddi shu ikki omildan foydalaniladi, matn ham idiomatik bo’lishi, o’zida implisit ma’lumotni mujassam qilgan bo’lishi mumkin. Taxmin, natija, diskurs implikaturasi va boshqalar, tabiiyki, idiomatiklikni kuchaytiradi. Matn mazmun planida qanchalik ko’p qatlamga ega bo’lsa, u shunchalik idiomatik hisoblanadi.

Idiomatik birliklar tilning o’ziga xos imkoniyatlarini namoyish etadi, shu bilan birga, til egalarining olam haqidagi tasavvurlari, uni qay tarzda idrok etishi haqida ham ma’lumot beradi. G’. Salomov haqli ravishda qayd etganidek, “tilning asl qaymog’i, uning o’ziga xos xususiyatlarini va tabiatini belgilaydigan, uning kamolot darajasi qanday ekanligini ko’rsatadigan, boshqa tillar o’rtasida tutgan o’rnini tayinlashda muhim omil bo’lgan narsa — idioma va boshqa shu kabi ko’chma ma’noli birikmalardir” (15, 18). Darhaqiqat, idiomatik til birliklar til egalariga tanish komponentlardan yasaladi, komponentlar o’zga tillardan olinmaydi. Bu jarayonda til birliklarining o’ziga xos milliy-madaniy xususiyatlari namoyon bo’ladi.

“Longman dictionary of English Language and Culture (Ingliz tili va madaniyati izohli lug’ati)”da idiomaga quydagicha ta’rif berilgan: “A phrase which means something different from the meaning of the separate words from which is formed”, ya’ni yasama frazaning ma’nosi uni tashkil qiluvchi so’zlarning ma’nosidan butunlay boshqa bir ma’noni anglatadi. V. N. Teliya idiomatiklashuv jarayonining, avvalo, metaforik ko’chishlar orqali ro’y berishi, bunda so’zlovchi o’z nomiga ega bo’lmagan narsa, belgi, jarayon, holat va shu kabilarni nomlash maqsadida tilda mavjud bo’lgan o’xshash mohiyatlarga murojaat qilishi (16, 133–134) haqida fikr yuritadi. A. V. Kunin bunday turg’un birliklarni “alohida shakllangan, turg’un birikma leksemalari butunlay yoki qisman ko’chma ma’noga ega bo’lgan til birliklaridir” deb ta’rif beradi. Olim mazkur birliklarni turg’un, turg’un emas hamda ma’no ko’chgan va ma’no ko’chmagan turlarga ajratadi (11, 7).

Idioma va *idiomatiklik* terminlariga quyidagicha oydinlik kiritish mumkin: *idioma* — (ko’chma ma’noda) bu mahsulot, *idiomatika* esa mahsulotning xususiyati. Ingliz tilida *an idiomatic expression* so’z birikmasi o’zbek tilida *idiomatik ifoda* ma’nosini anglatadi. Bunda ifoda planining xususiyati haqida so’z boradi.

Tilshunoslikda idiomatik qo’shma so’zlarga A.I. Smirniskiy tomonidan berilgan ta’rif ahamiyatli. Olim ingliz tilidagi *blackboard* qo’shma so’zini semantik jihatdan tahlil qilib, uning idiomatiklik belgisini ochib beradi. Ushbu qo’shma so’z o’zbek tiliga so’zma-so’z

quyidagicha tarjima qilinadi: *black* — *qora*, *board* — *taxta*. Ammo mazkur soʻzning asl maʼnosi “sinf doskasi”dir. A.I. Smirniskiy har qanday qora rangdagi taxtaning sinf doskasi boʻlavermasligi, sinf doskasi nafaqat taxtadan, balki boshqa materiallardan ham tayyorlanishini taʼkidlaydi. *Black board* birikuvi soʻz birikmasi boʻlib kelganda har bir komponentning mustaqil urgʻu olishi, ularning semantik jihatdan yaxlit maʼno anglatmasligini koʻrsatadi. Olim qoʻshma soʻzdagi idiomatiklikni umumiy maʼnosining komponentlar maʼno yigʻindisidan kelib chiqmasligi bilan izohlaydi.

XXI asrga kelib tilshunoslikda tilning boshqa birliklarida kuzatiluvchi idiomatiklik hodisasi ham maxsus tadqiqot obyekti sifatida oʻrganila boshlandi. Jumladan, V.A. Plungyan soʻzning farqli xususiyatlaridan biri idiomatiklik ekanligini qayd etadi. U idiomatiklikda soʻz shaklning maʼnolar munosabati uni tashkil qiluvchi morfemalar mohiyatiga zid ekanligini taʼkidlaydi. Olimning xulosasiga koʻra, koʻp hollarda soʻz yasovchi koʻrsatkichlar idiomatiklikning sababchisi boʻladi, soʻz shaklida andozaviylikning mavjud emasligi uning idiomatik uygʻunlikni hosil qilishi bilan xarakterlanadi (13, 27). Fikrimizcha, ushbu muammo muhokama qilinganda, soʻz yoki frazeologizmlar shaklining idiomatik birikuvini eʼtibordan chetda qoldirish kerak emas, idiomatiklik tamoyili soʻzni ajratish uchun mutlaq mezon hisoblanmaydi. Misol uchun ingliz tilidagi *moonshine* (*qoʻlbola aroq*) — alcohol that is made illegally idiomatik birligi ham insonning olam haqidagi bilimini verballashuvi natijasida ikkilamchi interpretatsiya hosilasi sanaladi. Buning boisi shundaki, qoʻshma soʻz komponentlaridan *oy shuʼlasi* maʼnosini anglatadi, ammo ushbu til birligining asl maʼnosi uning komponentlar maʼnosi yigʻindisidan kelib chiqmagan. Aynan bunday ichimlikning *moonshine* deb nomlanishida, noqonuniy xatti-harakatlar tunda amalga oshirilishi inobatga olingan boʻlib, inson oy, uning shuʼlasi hamda insonning qonunga zid boʻlgan harakatlarni amalga oshirish pallasida toʻliq bilimga ega boʻlganligi bois bunday til birligini yaratgan. Tahlildan koʻrinadiki har qanday tilda idiomatik til birliklar zahirida olam haqidagi bilimlar yotadi va uning lisoniy libosini taʼminlovchi zaxiraviy bilimga ega boʻlgan inson turadi.

Xulosa. Xullas, idiomatik birliklar, umumiy maʼnosi komponentlari maʼnosiga asoslanmaydigan, yaxlit holda butunlay yangi maʼno kasb etuvchi, shu bilan birga, til egalarining olam haqidagi bilimlari, uni qay tarzda idrok etishi haqida maʼlumot beruvchi leksik birliklar boʻlib, ikkilamchi interpretatsiya hosilasidir. Til birliklaridagi idiomatiklik hodisasini oʻrganish orqali olamni verbal ifoda etishning oʻziga xos usuli haqida bilimga ega boʻlinadi. Umuman, har bir til birligidagi idiomatiklik hodisasini maxsus tadqiq etish ularning bevosita kuzatishda koʻzga tashlanmaydigan ichki xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аничков И.Е. Идиоматика и семантика (Заметки, представленные А. Мейе, 1927), пер. с франц. Выдрин В.Ф. // Вопросы языкознания. — Москва, 1992. — № 5. — С. 136–148.
2. Балли Ш. Французская стилистика. Пер. с фр. К.А. Долинина. — Москва: Государственное издательство иностранной литературы, 1961. — 394 с.
3. Болдырев Н.Н., Алексикова Ю.В. Когнитивный аспект эвфемизации (на материале английского языка) // Вопросы когнитивной лингвистики. — 2010. — № 2. — С. 5–11.
4. Болдырев Н.Н. Категориальная система языка / Категоризация мира в языке / Когнитивные исследования языка Х. — Москва–Тамбов, 2012. — С. 17–120.
5. Болдырев Н. Н. Интерпретация мира и знаний о мире в языке // Когнитивные исследования языка. Вып. XIX: Когнитивное варьирование в языковой интерпретации мира: сборник научных трудов / отв. ред. вып. Н. Н. Болдырев. — М.: Ин-т языкознания РАН; Тамбов: Изд. дом ТГУ им. Г. Р. Державина, 2014. — С. 20–28.
6. Болдырев Н.Н. Антропоцентрическая сущность языка в его функциях, единицах и категориях // Вопросы когнитивной лингвистики. — 2015. — № 1. — С. 5–12
7. Болдырев Н.Н. Когнитивные схемы языковой интерпретации // Вопросы когнитивной лингвистики. — 2016. — №4. — С. 10–20.
8. Болдырев Н.Н. Языковая интерпретация и структура сознания // Когнитивные исследования языка. — 2016. — Вып. XXVII. — С. 25–35.
9. Кубрякова Е. С. Язык и знание: на пути получения знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. — М.: Языки славянской культуры, 2004. — 560 с.
10. Кубрякова Е.С. В поисках сущности языка // Вопросы когнитивной лингвистики. — 2009. — № 1. — С. 5–12.
11. Кунин А.В. Введение. Большой англо-русский фразеологический словарь. 4-е изд, перераб. и доп. — Москва: Русский язык, 1984. — 944 с.
12. Павилёнис Р.И. Проблема смысла: современный логико-философский анализ языка. — М.: Мысль, 1983. — 286 с.
13. Плунгян В. А. Общая морфология: Введение к проблематике. — Москва: Эдиториал УРСС, 2003. — 384 с.
14. Реформатский А.А. Введение в языковедение, издание 5-е, исправленное. — Москва: Аспект пресс, 2005. — 536 с.
15. Саломов Ғ. Мақол ва идиомаларнинг таржимаси. — Тошкент: Фан, 1961. — 162 б.
16. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический и лингвокультурологический аспекты (Язык, Семиотика, Культура). — Москва: Школа, Языки русской культуры, 1996. — 288 с.

17. Чейф У. Память и вербализация прошлого опыта. Перевод О.В. Звезгинцевой // Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск 12. Прикладная лингвистика. — М.: Радуга, 1983. — 462 с.
18. Anna Wierzbicka. The Semantics of Grammar [Studies in Language Companion Series, 18] Publishing status: Available John Benjamins Publishing Company. — 1988. — 617 p.
19. Daniel Sanford. Metaphor and phonological reduction in English idiomatic expressions // Cognitive Linguistics. — Berlin/New York, 2008. — vol. 19, N 4. — pp. 585–603.
20. Dennett D.C. Consciousness Explained. — Boston, 1991. — 511 p.
21. Fillmore, Ch. J., Kay P., O'Connor M. C. Regularity and Idiomaticity in Grammatical Constructions: The Case of Let Alone. // Language, 1988. — vol. 64, N 3. — pp. 501–538.
22. The World Book Encyclopedia I Volume 10. — 1997. — p.47 (Printed in the USA).

References

1. Anichkov I.E. *Voprosy yazykoznaniya*, Moskva, 1992, No. 5, pp.136–148.
2. Balli. Sh. *Frantsuzskaya stilistika* (French style), Moskva: Gosudarstvennoe izdatel'stvo inostrannye literatury, 1961, 394 p.
3. Boldyrev N.N., Aleksikova Yu.V. *Voprosy kognitivnoy lingvistiki*, 2010, No. 2, pp. 5–11.
4. Boldyrev N.N. *Kategorial'naya sistema yazyka / Kategorizatsiya mira v yazyke / Kognitivnye issledovaniya yazyka Kh* (Categorical system of language / Categorization of the world in language / Cognitive studies of the language of Fiction), Moskva-Tambov, 2012, pp. 17–120.
5. Boldyrev N. N. *Kognitivnye issledovaniya yazyka*, 2014, issue XIX, pp. 20–28.
6. Boldyrev N.N. *Voprosy kognitivnoy lingvistiki*, 2015, No. 1, pp 5–12.
7. Boldyrev N.N. *Voprosy kognitivnoy lingvistiki*, 2016, No. 4, pp. 10–20.
8. Boldyrev N.N. *Kognitivnye issledovaniya yazyka*, 2016, issue XXVII, pp. 25–35.
9. Kubryakova E. S. *Yazyk i znanie: na puti polucheniya znaniy o yazyke: chasti rechi s kognitivnoy tochki zreniya. Rol' yazyka v poznanii mira* (Language and knowledge: on the way to gaining knowledge about language: parts of speech from a cognitive point of view. The role of language in understanding the world), M.: Yazyki slavyanskoy kul'tury, 2004, 560 p.
10. Kubryakova E.S. *Voprosy kognitivnoy lingvistiki*, 2009, No 1, pp. 5–12.
11. Kunin A.V. *Vvedenie. Bol'shoy anglo-russkiy frazeologicheskiy slovar'* (Introduction // Large English-Russian phraseological dictionary), Moskva: Russkiy yazyk, 1984, 944 s.

12. Pavilenis R.I. *Problema smysla: sovremennyy logiko-filosofskiy analiz yazyka* (The problem of meaning: a modern logical and philosophical analysis of language), M.: Mysl', 1983, 286 p.
13. Plungyan V. A. *Obshchaya morfologiya: Vvedenie k problematike* (General morphology: An introduction to the problem), Moskva: Editorial URSS, 2003, 384 p.
14. Reformatskiy A.A. *Vvedenie v yazykovedenie* (Introduction to Linguistics), Moskva: Aspekt press, 2005, 536 p.
15. Salomov G. *Maqol va idiomalarning tarzhimasi* (Translation of Proverbs and idioms), Toshkent: Fan, 1961, 162 p.
16. Teliya V.N. *Russkaya frazeologiya. Semanticheskiy i lingvokul'turologicheskiy aspekty* (Yazyk, Semiotika, Kul'tura) (Russian phraseology. Semantic and linguocultural aspects (Language, Semiotics, Culture)), Moskva: Shkola, Yazyki russkoy kul'tury, 1996, 288 p.
17. Cheyf U. *Pamyat' i verbalizatsiya proshlogo opyta. Perevod O. V. Zvegintsevoy* // *Novoe v zarubezhnoy lingvistike. Vypusk 12. Prikladnaya lingvistika* (Memory and verbalization of past experiences. Translated by O. V. Zvegintseva // New in foreign linguistics. Issue 12. Applied Linguistics), M.: Raduga, 1983, 462 p.
18. Anna Wierzbicka. *The Semantics of Grammar* [Studies in Language Companion Series, 18] Publishing status: Available John Benjamins Publishing Company, 1988, 617 p.
19. Daniel Sanford. *Cognitive Linguistics*, Berlin/New York, 2008, vol. 19, No 4, pp. 585–603.
20. Dennett D.C. *Consciousness Explained*, Boston, 1991, 511 p.
21. Fillmore Ch. J., Kay P., O'Connor M. C. *Regularity and Idiomaticity in Grammatical Constructions: The Case of Let Alone*, Language, 1988, vol. 64, No 3, pp. 501–538.
22. *The World Book Encyclopedia* I, Volume 10, 1997, p.47 (Printed in the USA).